

ZAMONAVIY ISLOM VA G'ARB PSIXOLOGIYASIDA SHAXSNING PSIXOLOGIK TUZILISHI MASALALARI

Arabov Is'hoq

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Islom psixologiyasida shaxs tushunchasi mazkur sohani tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson zoti tabiatan jismoniy va metafizik (ruhiy) xususiyatga ega bo'lganligi sabab ham o'ta murakkab mavjudotdir. Jismoniy xususiyatga kelsak, psixologiya inson zoti va uning shaxsiyatini o'rganishni o'z ichiga qamrab olsa, ruhiy tomondan u shaxsning qalbi, aqli va ruhiyati kabi ko'rinmas narsalarni ham o'rganadi. Psixologiya sohasi insonning xulq-atvori bilan (ham) shug'ullanadigan ilmiy yo'nalishdir. Shunday qilib, ushbu maqolada islomdagi shaxs tushunchasi, islomiy dunyoqarash va uning shaxs bilan aloqasi hamda shaxs psixologiyasi qisqacha tahlil qilingan.*

***Tayanch so'z va iboralar.** Shaxs, islom nuqtai nazaridan shaxs psixologiyasi, islom psixologiyasi.*

Shaxs bu – psixologiyaning insonni individual va murakkab mavjudot sifatida yaxlit ko'rib chiqadigan, o'rganadigan mavzularidan biri. Shaxs nazariyalari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar “Nega biz ayni shundaymiz?” (yoki “Nega ayni shu joydamiz?”) kabi savollar atrofida vujudga kelgan. Ayni shu savolga javob berar ekanmiz, inson xatti-harakati chindan ham murakkab ekanligi yanada oydinlashadi. Insonlar juda ko'p o'xshashliklarga ega bo'lishi mumkin, ammo bir qancha jihatdan bir-biridan farq qilishi ham bor gap. Ko'pgina ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, tadqiqotchilar shaxs (xarakteri) va xulq-atvorining turli jihatlari o'rtasidagi ijobiy munosabatni o'rganishga harakat qilishgan. Bularga Freyd, Ollport, Adler, Bandura, Rodjers va boshqalarni misol qilish mumkin.

Har bir kishining shaxsi o'ziga xos alohidalikka (individuallikka) ega. Shuning uchun ham (u) uni boshqalardan ajratib turadi. Bunday jihat "individual farq" deb ataladi. Shaxsni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar inson shaxsining turli tomonlarini tushunish va tahlil qilishda bizga yordam bergan ko'plab shaxs nazariyalarining paydo bo'lishiga imkon berdi.

Islomda shaxs tushunchasi turli ma'nolarni o'z ichiga oladi. Jumladan, islom psixologiyasi vakillaridan – Aisha Utzning "Islom nuqtai nazaridan psixologiya" asarida shaxsga shunday ta'rif berilgan: "Shaxs, odatda, atrof-muhit va o'zini idrok etish, unga munosabatda bo'lish va o'ylashning barqaror shakllari sifatida tavsiflanadi. Biz odatda dunyoga va atrofimizdagilarga izchil va o'ziga xos tarzda munosabat bildiramiz. Har birimiz jismoniy xususiyatlarimizda qanchalik ajralib tursak, shaxsiyatimizda ham xuddi shunday noyobmiz".

Islom dini – insonning to'liq hayot tarzini qamrab oladi. Bu qamrovga masalan, fikrlash va harakat tizimini misol qilsak bo'ladi. Malayziyalik ruhiyatshunos olimlardan – Abu al-A'la al-Maududiyning fikricha, islom – Alloh va inson, inson va inson o'rtasidagi munosabatni chiroyli bir tarzda tushuntirib beradi. U axloqiy qoidalarni belgilaydi, madaniyat va sivilizatsiya tamoyillarini bayon qilib beradi. Ibodat va e'tiqod masalalarini aniq ifodalab beradi. Shuningdek, musulmonlar hayotini izga solishi kerak bo'lgan axloqiy me'yorlarni aniq bayon qiladi. Bu qoidalarga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy munosabatlar, urush va tinchlik masalalari hamda xalqaro aloqalarni misol sifatida keltirish mumkin. Alloh insonni hidoyatsiz tashlab qo'ymaydi. U zot barcha narsani ochiq bayon qilib beruvchi kitob bo'lmish – Qur'on hamrohligida bir payg'ambarni yubordi. Allohning elchisi – Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vazifalari – vahiy xabarini yetkazish bilan tugamagan, ya'ni shu bilangina chegaralanmagan. U zot alayhissalom iymon-e'tiqod, axloqu odob qoidalarini, ilohiy buyruq va qaytariqlar hamda bularning hammasini o'z ichiga oluvchi ibodat shakllarini odamlarga tushuntirib, izohlab ularni to'g'ri yo'lga boshladilar. Ba'zi olimlar islomni – yaxshilikka ergashish va intilish, Mehribon Allohning irodasi va qonun-qoidalariga bo'ysunish deya ta'riflaydi. Bu ta'rif

islomning haqiqiy mohiyatini o‘z ichiga olgan bo‘lib, har bir musulmonning chuqur ichki majburiyatidir. Biroq, bu ichki majburiyat tashqi ko‘rinishlar, burchni amalda bajarish va o‘z zimmasiga olgan narsaga faol qiziqish bilan qo‘llab-quvvatlansagina, uni amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi. Bu yerda e‘tiqod va harakat birgalikda shaxsning xarakter-xususiyatini birlashtiradi va uning hayotini mazmunli qiladi. Albatta, iymonni mustahkamlash va uning nurini ziyoda qilish uchun maqsadli harakatlar kerak bo‘ladi. Ularsiz iymon-e‘tiqodni tasavvur etib bo‘lmaydi. Iymonsiz abadiy ahamiyatga ega bo‘lgan mazmunli harakatni ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Muhammad alayhissalomning payg‘ambarlik vazifalarini quyidagicha tushunish zarur. Birinchisi, Allohning Qur‘ondagi buyruq (va qaytariq)lari, ikkinchisi, Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari. Bu haqda Alloh taolo “Anbiyo” surasi, 107-oyatda: **“Biz seni faqat olamlarga rahmat qilib yubordik”**, deya marhamat qilgan. Ikkinchi jihatga kelsak, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam aytadilar: **“Men go‘zal xulqlarni kamoliga yetkazish uchun yuborildim”**. Malayziyalik yana bir olim – M.Ansari musulmonning vazifasi – o‘z shaxsini, yashayotgan ijtimoiy muhitini va qolaversa, dunyoni yuksaltirish, rivojlantirish ekanini aytadi. Buning uchun inson o‘zini komillikning yuqori cho‘qqilariga erishishga tayyorlashi, sog‘lom va konstruktiv faoliyatga intilishda boshqalar bilan hamkorlik qilishi kerak bo‘ladi. Yagona maqsad – xalqning o‘zligini (anglatish), o‘ziga xos xususiyatini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, toki bunda ular ko‘z o‘ngida go‘zallik va kamolot olami munavvar bo‘lib ko‘rinsin va bu komillikka aql va ilm bilan yetishishga harakat qilsin. Odamlarning chiroyli axloq va odoblarga ega bo‘lishlari va to‘g‘ri yashashlari uchun mashq va mashg‘ulotlar sifatida joriy qilingan islomiy ibodatlar, ularning sharoitlarida qanday o‘zgarishlar bo‘lishidan qat’i nazar bu fazilatlarga oxirigacha amal qilish muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Inson shaxsi ular faoliyatining asosini tashkil etadi.

Islomiy dunyoqarash va shaxs. Tadqiqotchilar dunyoqarashni inson xulq-atvorining, jumladan, ilmiy-falsafiy va texnologik faoliyatining yakuniy asosi sifatida ko‘rsatadi. Aqliy asos – bu shaxs tomonidan butun hayoti davomida ishlab chiqilgan

tushunchalar va aqliy munosabatning yig'indisidir. Shuning uchun u ham biz "dunyoqarash" deb ataydigan narsani tashkil qiladi. Dunyoqarash har qanday harakatning asosiy poydevori sifatida qabul qilinganligi sababli, insonning har bir harakati pirovard natijada uning dunyoqarashidan kelib chiqadi.

Psixolog olimlardan Al-Attos islomiy dunyoqarashni quyidagicha izohlagan:

“Islomiy dunyoqarash – “dunyo” va “oxirat” tushunchalarini birgalikda qamrab oladi. Unda dunyo jihati oxirgi va asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan oxirat jihati bilan chuqur va ajralmas tarzda bog‘lanishi kerak. Ya’ni, dunyo ishini deb oxiratni, oxirat ishini deb dunyoni unutma! deyilganidek. Odatda dunyo jihati oxirat jihatidan ajralish sifatida qaraladi. Islomdagi hamma narsa oxirat tushunchasiga qaratilgan bo‘lsada, lekin, u dunyoga nisbatan beparvolikni bildirmaydi”. “Dunyo” va “oxirat” – Islomiy dunyoqarashni qiziqarli bir tarzda izohlab, tushuntirib beruvchi asosiy ikki tushunchadir. “Dunyo” tushunchasi – hozir biz yashab turgan dunyoni ifodalasa, bu yerdagi “oxirat” atamasi – oxirat dunyosini anglatadi. Islom aqidasi ko‘ra, insonning bu dunyodagi amallari, umuman yashagan umri oxiratdagi hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kim Allohning amriga itoat etsa, dunyoda solih insonlardan bo‘lsa, mazkur kishining oxiratdagi hayoti fayzli va barakali bo‘ladi.

Islom psixologiyasida shaxs tushunchasi. Shaxs – bu hayotdagi har bir narsada xarakterning namoyon bo‘lishidir. Axloqiy xarakter ya’ni, chiroyli xulq-atvor – musulmon hayotidagi oddiy bir tushuncha emas, balki, islom dinining asosiy maqsadidir. Bu xususida Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan “Iymoni komil musulmon qaysi?” deya so‘raldi. U zot: “Go‘zal xulq-atvorga ega bo‘lganidir”, dedilar. Islom ta’limotida shaxs deb – jism, aql va ruhdan tashkil topgan mavjudotga aytiladi. Insonning umumiy psixologik mohiyatini hamda o‘ziga xos xarakter-xususiyatining rivojlanish jarayonini anglash uchun shaxsning ichki olami yoki mohiyatini tushunish kerak bo‘ladi. Inson shaxsini yaxshiroq tushunish – uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni kengroq o‘rganish ila yuzaga chiqadi. Misrlik islomshunos, psixolog – Muhammad Usmon Najotiyning fikricha, biologik, ijtimoiy va madaniy omillar bo‘yicha ma’naviy jihatni ham hisobga olmasdan olib borilgan har qanday tadqiqot

shaxs haqida noaniq tavsif va sayoz xulosaga olib keladi. Inson tabiatining asosiy tushunchalari va uning imkoniyatlarini puxtaroq o'rganish inson shaxsini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Psixolog olimlardan Al-Attos fikricha, inson ikki element – tana va ruhdan iborat. Boshqa olimlarning fikriga ko'ra inson – loydan yaratilgan, yaratilish olamiga mansub, zamon va makon bilan bog'langan mavjudotdir. Ilohiy olamga mansub bo'lgan ruh esa – erkindir va bu ikki bog'lovchi omil bilan chegaralanib qolmaydi. Inson yuqorida aytilganidek, tana va ruhdan iborat. Ruh – chegaralanmagan, inson mavjudligining asosi bo'lgan latif bir narsadir.

Qur'onga ko'ra, barcha psixologik hodisalar nafsdan kelib chiqadi, ya'ni nafsdan paydo bo'ladi. O'zlik – insonning mohiyati bo'lib, ko'pincha arabcha to'rtta atamadan biri bilan ataladi. Ular: qalb (heart), ruh (soul), nafs (desire-nature) va aql (intellect/reason) atamalaridir. Ularning har biri ruhoniy mohiyatni ifoda etadi. Islom ulamolari odatda Qur'onda nafsning eng ko'p tilga olingan uchta holatini ajratib ko'rsatadilar:

1. Nafsi ammora (eng quyi nafs) – insonni Haqni inkor qilishga, yomon ishlarni bajarishga undovchi, unga rag'batlantiruvchi nafs turidir. Umuman olganda bu nafs – insondagi salbiy harakatlarni ifodalaydi. Uni Freydning “id” tushunchasi sifatida ko'rish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu o'zlikning hayvoniy darajasidir.

2. Nafsi lavvoma (o'z-o'zini malomat qilish, tergash) – O'z xatolaridan, gunohlaridan pushaymon bo'lib o'zini malomat qiluvchi nafs turidir. U nur va zulmat bilan yuzma-yuz bo'lgan nafsdir. Nafsi bu holatda bo'lgan kishilarda oz bo'lsa-da, oxiratda hisob berish vahimasi va qayg'usi bor.

3. Nafsi mutmainna (xotirjam nafs) – Yetuklik maqomi bo'lib, bunda banda nafsining hoyu havaslarini jilovlab olib, uni sokinlashtirgan bo'ladi. Yana shuningdek, Alloh rozi bo'lgan narsaga qanoat qilish, ichki xotirjamlik va baxt holati, deyilsa ham bo'ladi. Har bir musulmon inson mana shu qalb egasi bo'lishga intilishi lozim.

Insondagi asosiy yana bir element bu qalbdur. U – G'azzoliy ta'kidlaganidek, insonning asl mohiyatidir. Qalb – rabboniy, ruhoniy va latif narsa bo'lib, u insonning

mohiyatini namoyon etadi. Idrok, bilim va ma'rifat ham, xitob, itob, iqob va talab ham undandir.

Shuningdek, “qalb” – lug‘atda bir narsani ag‘darish ma’nosini ham anglatadi. U bir xil turmay, u yoq-bu yoqqa ag‘darilib turgani uchun ham “qalb” deb atalgan.

“Fitrat” (sof, musaffo tabiat yoki sof islom tabiati) bu – Islom psixologiyasi vakillaridan bo‘lmish Malik Badriga ko‘ra, islom ta’limotida keltirilgan axloqiy va diniy instinkt bo‘lib, u insonni bolalik paytidanoq Allohni tanish va yaxshilik qilishga undaydi. Agar bola axloqsiz va Xudoni tanimaydigan ota-onadan tarbiya olsa sof fitratidan ayrilishi mumkin. Bu borada Qur’oni karimning “Rum” surasi, 30-oyatda: **“Bu Alloh odamlarni yaratgan asl tabiatdir”**, deya marhamat qilingan. Imom An-Navaviy “fitrat”ni inson o‘z e’tiqodini ongli ravishda anglamaguniga qadar mavjud bo‘ladigan ongsiz holat deb ta’riflagan.

Inson hayvonlar va farishtalar o‘rtasida turuvchi mavjudotdir. Uning bu yerdagi o‘ziga xos xususiyati, afzalligi “aql” ne’matiga egaligidir. Inson manashu aql yordamida farishtalar darajasiga ko‘tarilishi yoki g‘azab va nafsning o‘z ustidan hukmron bo‘lishiga yo‘l qo‘yib, hayvonlar darajasiga tushishi mumkin. Alloh taolo insonga o‘z fitratini anglashga yordam berish uchun barcha tana a’zolarini va nafsning qobiliyatlarini yaratgan. Imom G‘azzoliyning fikricha, aql to‘liq ishga solingandagina fitratning ro‘yobga chishiga erishish mumkin. Aqlni to‘la ishga solishning, uning imkoniyatlaridan foydalanishning asosiy omili, zaruriy sharti bu – bilimdir.

Misrlik olim, “Qur’on va psixologiya” asari muallifi Muhammad Usmon Najotiy inson shaxsidagi hayvon va farishta timsollari o‘rtasidagi ziddiyatning mohiyatini chiroyli tarzda tushuntirib berdi. Unga ko‘ra, ikkalasi ham o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun bir-biri bilan raqobatlashadi. Bu haqda Qur’oni karimda ko‘plab xabarlar kelgan. Muhammad Usmon Najotiy nafsoniy va rahmoniy bu kurash insonlar uchun Alloh taoloning bir sinovi ekanini aytadi. Bu sinovda muvaffaqiyat qozongan kishilar dunyo va oxiratda ko‘plab yaxshiliklarni qo‘lga kiritishadi. Eng muhimi – inson nafsining ehtiyojlarini, istaklarini halol yo‘l bilan qondirishi, bu borada adashishga yo‘l qo‘ymasa bas. Shu bilan bir qatorda kishi o‘zining ruhiy-ma’naviy ehtiyojlarini ham

qondirishi zarur. Freydning inson rivojlanishi kontseptsiyasidan farqli o'laroq, islomiy qarashni psixo-ma'naviy deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi. Ya'ni, ham aqliy, ham ruhiy-ma'naviy o'lchovlar hisobga olinadi. Yuqori axloqiy fazilatlarga asoslangan islomiy shaxs e'tiqod, tashqi xususiyat va sifatlar, ijtimoiy xulq-atvor va odobni o'zida mujassam qilgan bo'ladi. U shaxslararo hayotning barcha jabhalarini, jumladan, inson va inson, inson va Xudo, inson va oila, inson va jamiyat, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bularning barchasi Payg'ambarimiz alayhissalomning hayotlarida yaqqol aks etgan va u zotning siyratlarida to'liq keltirib o'tilgan. Musulmon shaxs – nihoyatda sof va pokiza insondir. Uning shaxsiyati Allohning Kitobi va sunnati nabaviyya asosida tarbiyalangan bo'ladi. Bu ikkisisiz uning hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi. U samimiy va qat'iyatli shaxs bo'lib, Allohning dini asosida tarbiyalangan va kamol topgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *“A Preface to the Islamic Personality Psychology”*. Article in *International Journal of Psychological Studies* · January 2016. This is Nooraini Othman's article.
2. Al-Attas, S. M. N. (1990). *The nature of man and the psychology of the human soul*. Kuala Lumpur: International Institute of Islamic Thought and Civilisation.
3. Ansari, M. F.-u.-R. (2001). *The quranic foundations and structure of Muslim Society (Vol. 1)*. Kuala Lumpur: Islamic Book Trust.
4. Freud, S. (1938). *The basic writings of Sigmund Freud*. In A. Brill (Ed.). New York: The Modern Library.
5. Najati, M. U. (1968a). *Al-hadith an-nabawi wa 'ilmu an-nafs*. Mesir: Darus Syuruk.
6. Najati, M. U. (1968b). *Al-Quran wa 'ilmu an-nafs*. Mesir: Darus Syuruk.
7. Adler, A. (1964). *Social interest. A challenge to mankind*. New York: Capricorn.